


# Mavzu: Ko'rsatkichli funksiya

**2. Ko'rsatkichli funksiya va uning xossalari.**  $a > 0$ ,  $a \neq 1$  bo'lsin.

$f(x) = a^x$  tenglik bilan aniqlangan funksiya  $a$  asosli *ko'rsatkichli funksiya* deyiladi. Bu funksiya barcha haqiqiy sonlar to'plamida aniqlangan,  $D(f) = R$ , chunki  $a > 0$  bo'lganda  $a^x$  daraja barcha  $x \in R$  uchun ma'noga ega.  $x$  ning istalgan haqiqiy qiymatida  $a^x > 0$  bo'lgani uchun va ixtiyoriy  $b > 0$  sonda  $a^x = b$  bo'ladigan birgina  $x \in R$  soni mavjud bo'lgani uchun  $E(f) = R_+$  bo'ladi.

Xossalari:

1)  $a > 1$  bo'lsa,  $f(x) = a^x$  funksiya  $R$  da o'sadi.  $0 < a < 1$  bo'lsa,  $f(x) = a^x$  funksiya  $R$  da kamayadi.



**70- rasm.**

+ $\infty$  dan 0 gacha kamayadi,  $Ox$  o‘qi – gorizontal asimptota;

70- rasmda  $y = a^x$  ko‘rsatkichli funksiyaning sxematik grafigi tasvirlangan.

Agar  $a > 1$  bo‘lsa,  $x \rightarrow +\infty$  da  $a^x$  cheksiz ortadi,  $x \rightarrow -\infty$  da  $a^x$  nolgacha kamayadi. Demak,  $a^x$  grafigi  $y = 0$  to‘g‘ri chiziqqa tomon cheksiz yaqinlashadi, ya’ni  $Ox$  o‘qi funksiya grafigining *gorizontal asimptoti*. Shu kabi  $0 < a < 1$  bo‘lganda,  $a^x$  funksiya

**8.8.** Quyidagi funksiyalar grafiklarini  $[-2; 1]$  oraliqda yasang:

- a)  $y = 4^x$ ;      b)  $y = 3^x$ ;      d)  $y = 2^x$ ;  
e)  $y = -3 \cdot 3^x$ ;      f)  $y = -2 \cdot 3^x$ .

**8.9.** Tenglamalarni yeching:

- a)  $5^x = 125$ ;      b)  $3^{1+x} = 81$ ;      d)  $0,01^x = 100$ .

**8.10.** Ifodalarni soddalashtiring:

- a)  $(9^x)^2 - 3 \cdot 9^{2x} + 9^{2x+1} = 0$ ;      b)  $2^{8x} \cdot 3^x + 12^x - 2^{8x+1} \cdot 6^x$ ;  
d)  $a^{2x} + 2a^x b^x + b^{2x} - (a^x - b^x)^2$ .

**8.11.** Jadvalda  $y = f(x)$  uzluksiz funksiyaning bir necha qiymati keltirilgan. Ular  $y = A \cdot a^x$  ( $A \in R$ ,  $a > 0$ ,  $a \neq 1$ ) ko‘rinishdagi funksiyani ifodalashini tushuntiring, funksiyaning analitik ifodasini tuzing:

a)

$x$	1	2	3
$y$	0,2	0,04	0,008

b)

$x$	1	3	5	7
$y$	-2	-8	-32	-128